



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TALABALARNING LIDERLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ilmiy rahbar: **G'oyipnazarov Sanjar Bahodirovich**
TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası mudiri, professor
Qurbonova Nafisa Muhiddin qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning xorijiy oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or tajribalari tahlil qilindi, hamda ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga transformatsiya qilish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-mantiqiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar interpretatsiyasi va konseptual sintez metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik instituti va loyihaga yo'naltirilgan o'qitish (Project-based learning) tizimining samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida xorijiy tajribani milliy ta'lim muhitiga moslashtirishning mezonlari va metodologik modeli taklif etildi.

Kalit so'zlar: liderlik ko'nikmalari, talaba rivoji, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, mentorlik, loyihaviy ta'lim, xizmat orqali o'rganish, baholash

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Научный руководитель: **Гойипназаров Санжар Баходирович**
Заведующий кафедрой «Экономика труда» ТГЭУ, профессор
Курбонова Нафиса Мухиддин кизи
Магистрант Ташкентского государственного
экономического университета

Аннотация. В данной статье анализируется передовой опыт зарубежных высших учебных заведений по развитию лидерских компетенций у студентов и научно обосновываются возможности его трансформации в систему образования Узбекистана. В процессе исследования были использованы методы сравнительно-логического анализа, интерпретации нормативно-правовых актов и концептуального синтеза. Полученные результаты подтверждают эффективность компетентностного подхода, института менторства и системы проектного обучения (Project-based learning). В качестве научной новизны исследования предложены критерии и методологическая модель адаптации зарубежного опыта к национальной образовательной среде.

Ключевые слова: лидерские компетенции, высшее образование, зарубежный опыт, компетентностный подход, менторство, проектное обучение, трансформация

образования, критерии адаптации.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING STUDENTS' LEADERSHIP SKILLS AND OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

Academic Supervisor: **G'oyipnazarov Sanjar Bahodirovich**
Head of the "Labor Economics" Department at TSUE, Professor
Qurbonova Nafisa Muhiddin qizi
Master's student at Tashkent State
University of Economics

Abstract. This article analyzes the best practices of foreign higher education institutions in developing leadership competencies among students and scientifically substantiates the possibilities of their transformation into the education system of Uzbekistan. The research employs methods of comparative-logical analysis, interpretation of regulatory documents, and conceptual synthesis. The results confirm the effectiveness of the competency-based approach, the mentoring institute, and the project-based learning (PBL) system. As a scientific novelty of the study, criteria and a methodological model for adapting foreign experience to the national educational environment are proposed.

Keywords: leadership competencies, higher education, foreign experience, competency-based approach, mentoring, project-based learning, educational transformation, adaptation criteria.

Kirish

Zamonaviy globallashuv sharoitida hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi fonida oliy ta'lim tizimining funksional vazifalari tubdan transformatsiyalanmoqda. An'anaviy ravishda tor ixtisoslashgan bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan ta'lim modeli o'rnini, hozirgi kunda, murakkab va noaniq ijtimoiy-iqtisodiy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan, strategik fikrlovchi hamda yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir lider shaxslarni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv egallamoqda.

World Economic Forum tomonidan e'lon qilingan "Future of Jobs Report 2023" hisobotiga ko'ra, 2025-yilga borib mehnat bozorida eng talab yuqori bo'ladigan ko'nikmalar qatoriga analitik fikrlash, liderlik va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, murakkab muammolarni hal qilish hamda faol o'rganish qobiliyatlari kiradi ²⁶. Ushbu kompetensiyalar tizimida liderlik salohiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ish beruvchilarning qariyb 70 foizi oliy ta'lim bitiruvchilarida yetishmayotgan asosiy kompetensiyalar sifatida aynan "soft skills", jumladan, liderlik, jamoada ishlash va kommunikativlik ko'nikmalarini qayd etgan [2]. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi oldiga faqat nazariy bilimlarni berish emas, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini ham qo'yayotganini ko'rsatadi.

Jahon ta'lim makonida, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa

²⁶ World Economic Forum – Future of Jobs Report 2023; OECD – Skills Outlook 2021; G'arb universitetlari tajribasi bo'yicha ilmiy maqolalar; "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi

Ittifoqi mamlakatlarining yetakchi universitetlarida liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimli ravishda o'quv dasturlariga integratsiya qilingan. Ushbu yondashuvga ko'ra, liderlik tug'ma xususiyat emas, balki ta'lim, tajriba va refleksiya orqali shakllantiriladigan kompetensiya sifatida talqin etiladi [3]. O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi tomonidan ilgari surilgan “Yangi O'zbekiston – 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning intellektual va liderlik salohiyatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan [4]. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kredit-modul tizimini joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kengaytirish hamda xalqaro tajribalarni integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda [5].

Biroq, olib borilayotgan islohotlarga qaramay, milliy oliy ta'lim tizimida talabalar liderlik salohiyatini shakllantirishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, talabalarni mustaqil qaror qabul qilish jarayonlariga yetarli darajada jalb etilmasligi hamda liderlikni rivojlantirishning metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatilmoqda. Mazkur muammolarni hal etishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, mentorlik dasturlari, loyihaviy ta'lim va talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni milliy ta'lim muhitiga moslashtirish (adaptatsiya qilish) orqali oliy ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi – xalqaro universitetlarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish modellarini qiyosiy tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi strategik vazifa hisoblanadi. Xorijiy ilmiy ²⁷adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, liderlik tushunchasi bugungi kunda tug'ma xislat emas, balki tizimli ta'lim va ijtimoiy amaliyot jarayonida shakllanadigan dinamik ko'nikmalar majmuasi sifatida talqin qilinmoqda.

Xususan, A. Astin va X. Leland kabi olimlarning yondashuviga ko'ra, liderlik oliy ta'lim tizimida shunchaki yuqori lavozimni egallash emas, balki jamoada ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish san'ati deb baholanadi. Ularning "Ijtimoiy o'zgarishlar modeli" (Social Change Model) talabani jamiyatning faol a'zosi sifatida ko'radi. Shuningdek, S. Komives tomonidan

²⁷ Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi materiallari

ilgari surilgan "Liderlik identifikatsiyasini rivojlantirish" (LID) modeli talabani bosqichma-bosqich o'zgarishini tushuntirib beradi: dastlab talaba o'zini jamoaning oddiy a'zosi deb bilsa, tajriba ortishi bilan boshqalarga ta'sir o'tkaza oladigan va mas'uliyatni zimmasiga oladigan yetakchiga aylanadi.

G'arb tajribasida, xususan AQSH va Yevropa universitetlarida, liderlikni shakllantirishda Daniel Golemanning emotsional intellekt (EQ) nazariyasi alohida o'rin tutadi. Goleman fikricha, akademik bilim (IQ) mutaxassis uchun zarur, biroq liderlik uchun o'z hissiyotlarini boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqotga kirishish qobiliyati (EQ) birlamchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Robert Grinlifning "Xizmatkor-liderlik" (Servant Leadership) konsepsiyasi liderning asosiy vazifasi jamoaga xizmat qilish va uning a'zolari o'sishiga sharoit yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa talabalarda nafaqat boshqarish, balki yordam berish va yo'naltirish madaniyatini shakllantiradi.

Sharqiy Osiyo tajribasida esa liderlik ko'proq jamoaviy birdamlik va intizom bilan bog'lanadi. Xofstede kabi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bu hududda liderlik "kollektivizm" tamoyiliga tayanadi, ya'ni lider o'zini jamoaning ajralmas qismi deb biladi. Bu tajriba O'zbekiston kabi milliy qadriyatlarga sodiq va jamoaviylikka asoslangan jamiyatlar uchun g'oyat dolzarbdir.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ushbu xorijiy modellardan foydalanish imkoniyatlari keng. Xalqaro tajribaga tayanib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ko'proq avtonomiya berish, ularni real boshqaruv jarayonlariga jalb qilish va "Ustoz-shogird" tizimini biznes-liderlar bilan bog'lash ijobiy natija beradi. Shuningdek, o'quv dasturlariga "soft skills" kurslarini kiritish va talabalar kengashlarining vakolatlarini kengaytirish orqali xorijiy nazariyalarni milliy amaliyotga moslashtirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, xorijiy olimlarning liderlik borasidagi qarashlarini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish zamonaviy, mas'uliyatli va raqobatbardosh kadrlar qatlamini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi talabalarning liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xalqaro mexanizmlarini tizimli tahlil qilish va ularni O'zbekiston oliy ta'lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Izlanish jarayonida sifat tahlili va qiyosiy-tahliliy yondashuvlardan keng foydalanildi, bu esa turli ta'lim modellarining samaradorligini obektiv baholash imkonini beradi. Tadqiqotning birlamchi bosqichida AQSh, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning yetakchi universitetlarida qo'llaniladigan liderlik dasturlari, o'quv rejalari va talabalar bilan ishlash strategiyalari hujjatli tahlil (document analysis) usuli orqali ko'rib chiqildi. Bunda asosiy e'tibor kompetensiyaviy yondashuv, mentorlik institutining roli va loyihaviy ta'lim metodikasiga qaratildi.

Ikkinchi bosqichda O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud holat,

jumladan, normativ-huquqiy baza va amaldagi yoshlar siyosati xalqaro standartlar bilan qiyoslandi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida g'arbiy universitetlarning individual tashabbuskorlikka asoslangan modellari va milliy ta'lim muhitining ijtimoiy-madaniy jihatlari o'rtasidagi bog'liqlik hamda tafovutlar aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda konseptual sintez usuli qo'llanilib, uning yordamida xorijiy tajribadagi eng muvaffaqiyatli elementlarni milliy tizimga adaptatsiya qilishning nazariy modeli ishlab chiqildi. To'plangan ma'lumotlarni umumlashtirishda SWOT tahlili usulidan foydalanilgan holda, O'zbekiston OTMlarida liderlik markazlarini tashkil etishning

Tahlil va natijalar

Xorijiy universitetlarda talabalarining liderlik ko'nikmalarini shakllantirish modellari qiyosiy o'rganilganda, ta'lim jarayonining faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. G'arb mamlakatlari, xususan, AQSh va Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalari maxsus ishlab chiqilgan o'quvdan tashqari (co-curricular) faoliyatlar zanjiri orqali rivojlantiriladi. Ushbu yondashuv talabaning akademik o'zlashtirishi bilan bir qatorda uning ijtimoiy tashabbuskorligini ham teng huquqli baholash tizimiga asoslangan.

1-jadval

Oliy ta'limda talabalar yetakchiligini rivojlantirishning xalqaro va milliy tajribasi qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi	Sharqiy Osiyo (Koreya, Yaponiya) tajribasi	O'zbekiston oliy ta'lim tizimi (amaldagi holat)
Asosiy yondashuv	Individual tashabbuskorlik va "Co-curricular" dasturlar	Jamoaviy mas'uliyat va "Servant leadership"	Ijtimoiy-siyosiy faollik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar
Baholash tizimi	Maxsus liderlik sertifikatlari va akademik kreditlar	Mentorlik bahosi va jamoaviy natijadorlik	Rag'batlantiruvchi diplomlar va stipendiyalar
Asosiy metod	Loyihaviy ta'lim (PBL) va keys-stadi	Ustoz-shogird an'anasi va korporativ etika	Seminar-treninglar va tanlovlar
Boshqaruvdagi roli	Talabalar real qaror qabul qilish vakolatiga ega	Ijtimoiy iyerarxiya va intizomga tayangan yetakchilik	Maslahat berish va ijro etish xarakteridagi ishtirok

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud an'anaviy yondashuv bilan qiyoslaganda, xorijiy tajribada liderlik tushunchasi iyerarxik boshqaruv emas, balki jamoaviy hamkorlik va muammolarni kreativ hal qilish (problem-solving) sifatida talqin etilishi kuzatiladi. Janubiy Koreya va Yaponiya kabi Sharqiy Osiyo davlatlarining tajribasi esa liderlikni axloqiy mas'uliyat va

mentorlik instituti bilan uzviy bog'laydi, bu esa milliy ta'lim muhitimizdagi "ustoz-shogird" an'analarini zamonaviylashtirish uchun mustahkam poydevor bo'la oladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, liderlikni rivojlantirishning muvaffaqiyati universitet ma'muriyati, talabalar o'zini o'zi boshqarish organlari va potensial ish beruvchilar o'rtasidagi vertikal va gorizontal aloqalarning qanchalik samarali yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan talabalarning liderlik kompetensiyalarini shakllantirish modeli iyerarxik ketma-ketlikka asoslangan bo'lib, u shaxsiy samaradorlikdan strategik boshqaruvga o'tishning mantiqiy bosqichlarini ifodalaydi.

Modelning asosi bo'lgan birinchi bosqich - shaxsiy yetakchilik (Self-Leadership) bo'lib, u talabaning o'z-o'zini boshqarish, vaqtni unumli taqsimlash va hissiy intellekt (EQ) kabi ichki resurslarini safarbar etishni ko'zda tutadi. Ushbu poydevorsiz talabaning tashqi muhitda lider sifatida namoyon bo'lishi imkonsizdir.

Ikkinchi bosqich - jamoaviy yetakchilik (Team Leadership) bo'lib, bu darajada talaba o'zining kommunikativ qobiliyatlarini namoyish etadi. Bunda asosiy urg'u jamoada ishlash, vazifalarni to'g'ri taqsimlash (delegatsiya), empatiya va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalariga qaratiladi. Bu bosqich talabaning ijtimoiy muhitdagi moslashuvchanligini va guruh manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya olish qobiliyatini belgilaydi.

Iyerarxiyaning eng yuqori nuqtasi - strategik yetakchilik (Strategic Leadership) bo'lib, u talabadan tizimli fikrlash, murakkab vaziyatlarda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va loyihalarni boshqarish (Project Management) kompetensiyalarini talab etadi. Ushbu bosqichda talaba nafaqat ijrochi, balki innovatsion g'oyalar tashabbuskori va jarayonlar transformatori sifatida namoyon bo'ladi. Taklif etilayotgan ushbu uch bosqichli model xorijiy tajribadagi amaliy yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning konseptual asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot va xalqaro tajribani sintez qilish natijasida talabalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan bir necha ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalarida liderlikni faqat ijtimoiy faollik emas, balki o'quv dasturining bir qismi sifatida tan olish va talabalarning loyihaviy faoliyatlarini maxsus akademik kreditlar (ECTS) tizimi orqali rag'batlantirish mexanizmi asoslab berildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali adaptatsiya uchun universitetlarda liderlik markazlarini tashkil etish va ularda xalqaro mentorlik dasturlarini mahalliyashtirish zarur. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelga ko'ra, talaba o'zining liderlik salohiyatini uch bosqichda — shaxsiy samaradorlik, jamoaviy hamkorlik va strategik boshqaruv bosqichlarida namoyon etishi lozim. Shuningdek, xorijiy tajribadagi "servant leadership" tamoyillarini milliy ta'limga joriy etish orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan

tasdiqlandi. Yakuniy natijalar sifatida, talabalarining liderlik kompetensiyalarini baholashning xalqaro standartlarga asoslangan indikatorlar tizimi taklif etildi, bu esa bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, Oliy ta'limdagi talabalarda liderlikni rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi? Quyida ushbu maqsadga erishishning 10 ta sinalgan usuli ishlab chiqilgan:

2-jadval

Talabalarda yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va ularning samaradorlik darajasi

№	Usul nomi	Qisqacha tavsif	Afzalligi	Qo'llash samaradorligi
1	Tajribaviy o'rganish	Amaliy vazifalar, real loyihalarda qatnashish	Nazariyani amaliyot bilan bog'laydi	Juda yuqori
2	Mentorlash	Tajribali shaxslar bilan individual ishlash	Shaxsiy rivojlanishni tezlashtiradi	Yuqori
3	Jamoaviy loyihalar	Guruhda muammolarni birgalikda hal qilish	Liderlik va kommunikatsiyani rivojlantiradi	Juda yuqori
4	Case study metodi	Real biznes yoki hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish	Qaror qabul qilish ko'nikmasini oshiradi	Yuqori
5	Talabalar tashkilotlari	Klub va student birlashmasida faoliyatida ishtirok	Amaliy boshqaruv tajribasi beradi	Juda yuqori
6	Treninglar	Maxsus liderlik mashg'ulotlari	Yumshoq ko'nikmalarni rivojlantiradi	O'rta-yuqori
7	Xalqaro almashinuv dasturlari	Chet elda o'qish yoki stajirovka	Global fikrlashni kengaytiradi	Yuqori
8	Fikr mulohaza va o'z-o'zini baholash	O'zini baholash va tahlil qilish	O'sish nuqtalarini aniqlaydi	O'rta
9	Raqamli o'qitish platformalari	Online kurslar va simulyatsiyalar	Moslashuvchan va zamonaviy	O'rta
10	Ijtimoiy (volunteer) loyihalar	Jamiyatga xizmat qilish orqali rivojlanish	Mas'uliyat va tashabbusni oshiradi	Yuqori

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, talabalarda liderlikni rivojlantirishning eng samarali usullari asosan amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlar hisoblanadi. Xususan, tajribaviy o'rganish, jamoaviy loyihalar va talabalar tashkilotlaridagi ishtirok yuqori samaradorlikka ega bo'lib, talabalarda real hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, muloqot va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, mentorlash va xalqaro dasturlar shaxsiy hamda professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Nisbatan pastroq samaradorlikka ega bo'lgan usullar (masalan, raqamli platformalar va o'z-o'zini baholash) esa asosan qo'shimcha vosita sifatida xizmat qiladi va ular boshqa usullar bilan integratsiyalashgan holda yanada yuqori natija beradi. Umuman olganda, liderlikni rivojlantirishda kompleks va tizimli yondashuv eng maqbul hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy oliy ta'lim tizimlarida talabalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish ko'proq amaliy va tajribaga asoslangan yondashuvlarga tayanadi. Xususan, xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, tajribaviy o'rganish (experiential learning) asosida ta'lim olgan talabalarining 70–80 foizi o'zlarida liderlik va qaror qabul qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini qayd etgan. Shuningdek, OECD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida talabalarining 65 foizdan ortig'i o'qish davomida kamida bitta jamoaviy loyiha yoki amaliy tashabbusda ishtirok etadi, bu esa ularning ijtimoiy va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada mentorlik dasturlari keng qo'llanilib, World Economic Forum hisobotlariga ko'ra, mentorlikda ishtirok etgan talabalarining qariyb 60 foizi o'zining liderlik salohiyatini oshirganini bildirgan. Xalqaro almashinuv dasturlari ham muhim omil bo'lib, chet elda o'qigan talabalarining 75 foizdan ortig'i o'zida mustaqillik, moslashuvchanlik va global fikrlash ko'nikmalari rivojlanganini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 2025-yilga kelib oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 38–40 foizga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2016-yilda atigi 9 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, talabalarni amaliy loyihalar va startup faoliyatiga jalb etish ko'lami kengayib, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan innovatsion markazlar soni sezilarli darajada oshgan. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosan nazariy yondashuvlarga tayanib qolmoqda va amaliy komponentlar ulushi yetarli darajada emas. Masalan, talabalar o'rtasida o'tkazilgan ayrim so'rov natijalariga ko'ra, ularning faqat 30–35 foizi o'qish davomida real loyihalarda faol ishtirok etganini bildirgan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy ilg'or tajribalar va statistik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, talabalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi amaliy faoliyat, mentorlik va xalqaro tajriba bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish orqali talabalarni real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga keng jalb etish, ularning tashabbuskorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Natijada esa, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, global miqyosda fikrlay oladigan yosh liderlar qatlamini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. Northouse, P. G. (2021). Leadership: Theory and Practice (9th ed.). SAGE Publications.
3. Goleman, D. (2017). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
4. Kouzes, J. M., & Posner, B. Z. (2017). The Leadership Challenge: How to Make Extraordinary Things Happen in Organizations. John Wiley & Sons.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
6. Heifetz, R. A., & Linsky, M. (2017). Leadership on the Line: Staying Alive Through the Dangers of Change. Harvard Business Review Press.
7. Komives, S. R., & Wagner, W. (2016). Leadership for a Better World: Understanding the Social Change Model of Leadership Development. Jossey-Bass.
8. Abdullayeva, Sh. A. (2021). Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Monografiya. Toshkent.
9. Dugan, J. P. (2017). Leadership Theory: Facilitating Learning and Transformation. Jossey-Bass.
10. OECD (2020). The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing.